

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETINING
TOSHKENT FILIALI**

QOSIMOV SAYFIDDIN JAXONGIR O‘G‘LI

**BALIQLARDA OQSILLAR ALMASHINUVI BUZILISHLARINING
ETIOPATOGENEZI VA OLDINI OLISH USULLARI**

16.00.01 - Hayvonlar kasalliklari diagnostikasi, terapiyasi va xirurgiyasi

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
ветеринарным наукам**

Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary sciences

Qosimov Sayfiddin Jaxongir o'g'li

Baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlarining etiopatogenezi va oldini olish usullari..... 3

Косимов Сайфиддин Жахонгир угли

Этиопатогенез и методы профилактики нарушений белкового обмена у рыб..... 21

Kasimov Sayfiddin Jakhongir Ugli

Etiopathogenesis and methods of prevention of protein metabolism disorders in fish 41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
TOSHKENT FILIALI**

QOSIMOV SAYFIDDIN JAXONGIR O‘G‘LI

**BALIQLARDA OQSILLAR ALMASHINUVI BUZILISHLARINING
ETIOPATOGENEZI VA OLDINI OLIH USULLARI**

16.00.01 - Hayvonlar kasalliklari diagnostikasi, terapiyasi va xirurgiyasi

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand -2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/V72 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.ssuv.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Eshburiyev Sobir Baxtiyorovich veterinariya fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Bakirov Baxtiyar veterinariya fanlari doktori, professor Baliyev Shavkat Kuchkarovich veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Yetakchi tashkilot:	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/30.12.2019.V.12.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «14» 09 soat «10⁰⁰» dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77- uy. Tel./faks: (99866) 234-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14326 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77- uy. Tel./faks: (99866) 234-76-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «28» 08 kuni tarqatildi.
(2024 yil «28» 08 dagi № 11 - raqamli reystr bayonnomasi)



X.B.Yunusov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, biol.f.d., professor

T.I.Taylakov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, vet.f.d., dotsent

Q.N.Norboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi, vet. f. d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo mamlakatlarida aholi sonining ko'payib borishi ekologik toza va sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojining kun sayin oshishiga olib kelmoqda. Ushbu dolzarb muammolarni samarali hal etishda baliq va baliq mahsulotlarini yetishtirish muhim o'rin tutadi. Shu sababli baliqchilikni intensiv shaklda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Baliq mahsulotlarini yetishtirish «2000-2012-yillarda Afrika mamlakatlarida 11,7 foizni, Lotin Amerikasida 10,0 foizni, aksariyat Osiyo mamlakatlarida esa 8,2 foizni, Xitoyda 30 foizni tashkilgan etgan bo'lsa, 2012-yildan boshlab intensiv baliqchilikning yillik o'sish surati 5,5 foizga keskin kamaya boshlagan¹». Bunga asosiy sabab qilib intensiv texnologiyalar asosida boqilayotgan baliqlarning oqsil, vitamin va mineral moddalarga bo'lgan talabini yetarlicha qondirilmayotganligi oqibatida yuzaga kelayotgan metabolizm buzilishi kasalliklari ko'rsatilmoqda. Baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishi kasalliklarini diagnostika qilish va guruhli profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Dunyo davlatlari miqiyosida veterinariya ixtiopatologiyasi ilm-fanining oldiga qo'yilgan dolzarb vazifalardan biri baliqlarda uchraydigan saqlash va oziqlantirish sharoitlarining buzilishi oqibatida rivojlanadigan metabolizm buzilishi kasalliklarini oldini olishga qaratilgan bo'lib, bu borada ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligiga qaramasdan, ushbu kasalliklarni diagnostika qilish va oldini olishning samarali usullari yetarlicha ilmiy asoslanmagan. Baliqlar orasida keng tarqalgan oqsillar almashinuvi buzilishi patologiyalarini erta aniqlash, kasallikni davolash va guruhli profilaktika qilishning ilmiy asoslangan samarali usullarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish muhim ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Hozirgi kungacha Respublikamiz baliqchilik xo'jaliklari, shu jumladan intensiv baliqchilik havzalarida parvarish qilinayotgan va ko'paytirilayotgan baliqlar orasida metabolizm buzilishi kasalliklaridan oqsillar almashinuvi buzilishi ko'proq uchramoqda, lekin bu tur yuqumsiz kasalliklariga baliqchilikda yetarlicha e'tibor berilmaydi. Baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlari ozuqalar va havza suvidan turli xil organik va anorganik moddalarni talab darajasida qabul qilmasligi yoki ular organizmida oqsillar sintezining buzilishi oqibatida rivojlanib, fiziologik jarayonlarning izdan chiqishi, ichki organlarda turli patologik o'zgarishlarning namoyon bo'lishi, baliqlarning o'sishdan qolishi, mahsuldorlikning kamayishi, ko'plab baliqlarning nobud bo'lishi hamda veterinariya tadbirlari uchun xarajatlarni ortishi hisobidan katta iqtisodiy zarar keltirmoqda.

Ushbu dissertatsiya tadqiqotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»² farmoni, 2020-yil 29-

¹ Габеева А.Р. Хозяйственно-биологические особенности зеркального карпа, с использованием нетрадиционного корма (каныги) / Габеева А. Р. // Диссертация. -Владикавказ - 2018.- С. 9.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni

yanvardagi PQ-4576-sonli «Chorvachilik tarmogʻini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi, 2022 yil 13 yanvardagi PQ-83-son «Baliqchilik tarmogʻini yanada rivojlantirishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi, 2022-yil 31-martdagi PQ-187-son «Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish toʻgʻrisida»gi, 2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-son «Oʻzbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish boʻyicha 2022-2026-yillarga moʻljallangan dasturni tasdiqlash toʻgʻrisida»gi, 2023 yil 18 avgustdagi PQ- 281-son «Baliqchilik xoʻjaligi ehtiyojlari uchun suv havzalaridan foydalanish tartibini takomillashtirish hamda baliq ovlash va suv boʻyi turizmi maskanlarini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xoʻjaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yoʻnalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlarining sabablari, etiologiyasi, kechish xususiyatlari va oldini olish usullarini oʻrganish boʻyicha N.A.Головина, Ю.А.Стрелков, В.Н.Воронин, Л.Х.Казакова, А.Р.Габаева, В.Ф.Абрамов, Н.Б.Ананева, Е.П.Мирошникова, А.Е.Аринжанова, В.А.Герасимчик, Н.Н.Глуценко, С.П.Василевская, Л.Д.Житенева, Э.В.Макаров, О.А.Рудницкая, Е.В.Пищенко kabi olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan va ilmiy-amaliy natijalarga erishilgan.

Respublikamiz olimlari Q.Norboyev, B.Bakirov, B.Eshburiyevlar tomonidan qishloq xoʻjaligi hayvonlarida moddalar almashinuvi buzilishi kasalliklarini diagnostikasi, davolash va oldini olish boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. M.Yarbekov, F.I.Qurbonov, M.A.Abdullaev, D.U.Urchinov, R.B.Kurbonovlar tomonidan baliqlarni oziqlantirish va saqlash sharoitlarining buzilishlari oqibatida yuzaga keladigan moddalar almashinuvi buzilishlarining ayrim jihatlari oʻrganilgan.

Adabiyot maʼlumotlari tahlilidan aniqlandiki, bugungi kungacha Respublikamizning havza baliqchilik xoʻjaliklari sharoitidagi karp zotli baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlarining etiopatogenezi, diagnostikasi va oldini olish usullari yetarlicha ilmiy asoslanmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy–tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filialining Samarqand viloyati Kattaqoʻrgʻon tumani «Aminjon Faruxbek» baliqchilik xoʻjaligi bilan «Baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishini kelib chiqishi va oldini olish usullari» boʻyicha tuzilgan shartnoma (№01. 01.02.2022y.), Narpay tumani «Narpay Quvonchbek» xususiy korxonasi bilan «Baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishini etiopatogenezi va oldini olish» boʻyicha tuzilgan shartnoma (№02. 28.03.2022y.), Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani «Autsayder Fish» masʼulyati cheklangan jamiyati bilan «Baliqlarda saqlash va oziqlantirish sharoitlarini buzilishi natijasida kelib chiqadigan oqsillar

almashinuvi buzilishlarini diagnostikasi va oldini olish usullari» bo'yicha tuzilgan shartnomalar (№03. 1.04.2022y.) asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Samarqand va Toshkent viloyatlarining sun'iy suv havzalari sharoitida o'stirilayotgan baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlarining etiopatogenezi aniqlash va oldini olish usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Samarqand va Toshkent viloyatlarining sun'iy suv havzalari sharoitida (intensiv va polikultura suv havzalarida) parvarishlanayotgan baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishining tarqalishi, etiologiyasi va iqtisodiy zararini aniqlash;

baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlarining simptom va sindromlarini aniqlash;

baliqlarning oqsillar almashinuvi buzilishlarida gematologik o'zgarishlarni aniqlash;

oqsillar almashinuvi buzilishlarida baliqlar organizmida kuzatiladigan patologoanatomik o'zgarishlarni o'rganish;

baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlarini diagnostika qilish va guruhli profilaktika qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Samarqand va Toshkent viloyatidagi sun'iy baliqchilik suv havzalarida o'stirilayotgan 1 yillik karp zotli baliqlari, qon va ozuqa namunalari, sun'iy suv havzalari va ulardan olingan suv namunalari, granulali va ekstruderlangan omuxta yemlar, probiokorm va innoprovot probiotiklari olingan.

Tadqiqotning predmeti baliqlarning klinik, patologoanatomik va gematologik ko'rsatkichlari, sun'iy suv havzalaridan olingan suvning pH ko'rsatkichi, suv tarkibidagi kislorod miqdori, ratsion tarkibi va to'yimlilik hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy-tadqiqotlarni bajarishda morfologik, klinik, mikroskopik, biokimyoviy, refraktometrik, ozuqa namunalari zootexnikaviy tahlil qilish, suv muhitini pH metrda aniqlash, statistik hamda patologoanatomik usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Samarqand va Toshkent viloyatlarining sun'iy suv havzalarida o'stirilayotgan karp turidagi baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlari 36,0-39,53% ni tashkil etib, ular ratsionidagi proteinning o'rtacha 6-12% ga yetishmasligidan kelib chiqishi aniqlangan;

baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishini subklinik davrida ETS (energiya tanqisligi sindromi) biosinov test tekshiruviga asoslangan diagnostika qilish usuli ishlab chiqilgan;

oqsillar almashinuvi buzilishlari baliqlarda ishtaha pasayishi, tana rangining qorayishi, tangachalarning tushishi, harakat koordinatsiyasini buzilishi simptomlari hamda tana muskullarining atrofiyasi, jigar hajmining kattalashishi va loyqasimon tusga kirishi, ichaklar shilliq qavatida chiziqsimon, yo'lchasimon qizil dog'larning kuzatilishi kabi patologoanatomik o'zgarishlar bilan kechishi ilmiy asoslangan;

baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlarini oldini olish maqsadida 0,1% miqdorda "Innoprovot" probiotigi hamda 3% baliq uni bilan boyitilgan ekstruderlangan omuxta yemni baliqlar tana vaznining 2,5% miqdorida berish usuli ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Intensiv baliqchilik xo‘jaliklarida o‘stirilayotgan karp turdagi segoletkalarda oqsillar almashinuvi buzilishi kasalliklarini uchrash darajasi va iqtisodiy zarari ilmiy tahlil qilingan;

baliqchilik suv havzalarida kislorod miqdorining (12-28%) kamayishi va pH ko‘rsatkichini kislotali tomonga o‘zgarishi baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlariga sabab bo‘lishi aniqlangan;

baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlarining subklinik davrida diagnostika qilishning energiya tanqisligi sindromi (ETS) biosinov test tekshiruviga asoslangan usuli ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlarini guruhli oldini olish uchun 0,1% Innoprovot probiotigi va 3% baliq uni bilan boyitilgan ekstruderlangan yem tayyorlab berish usuli joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishning yangi zamonaviy usullardan foydalangan holda o‘tkazilganligi, klinik, biokimyoviy, morfologik, zootexnikaviy usulblardan foydalanish va raqamli ma’lumotlarga statistik ishlov berish, shuningdek, olingan nazariy natijalarning tajriba ma’lumotlari bilan to‘g‘ri kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar bilan taqqoslanganligi, shuningdek, laboratoriya va ishlab chiqarish tajribalarining dalolatnomalarga asoslanganligi, olingan natijalarning mutaxassislar tomonidan tasdiqlab baholanganligi bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishining kelib chiqishida ularni yoshi va yil mavsumiga bog‘liq oziqlantirishni noto‘g‘ri ekanligini aniqlanganligi, kasallik baliqlar organizmida o‘sish va rivojlanishdan qolish, ishtahasini pasayishi, tana rangini qorayishi, harakat koordinatsiyasini buzilishi singari xarakterli klinik belgilar, tana muskullarini atrofiya holatida oqimtir kul rangda ekanligi, jigarda oqsil distrofiyasini rivojlanishi oqibatida hajmi kattalashishi va loyqasimon tusga kirishi, ichaklarda ozuqaning kamligi, shilliq qavatida chiziqsimon yo‘l-yo‘l qizg‘ish o‘choqlar mavjudligi kabi patologoanatomik o‘zgarishlar, qondagi gemoglobin, qon zardobidagi umumiy oqsil, retinol miqdorining kamayishi bilan kechishi ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlarining subklinik davrida diagnostika qilish (ETS- energiya tanqisligi sindromiga asoslangan) hamda ushbu patologiyani oldini olishda “Innoprovot” preparati va 3% hisobida baliq uni qo‘shilgan ekstruderlangan omuxta yemni qo‘llash usullarini ishlab chiqilganligi va amaliyotga joriy qilinganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlarini etiopatogenezi va oldini olish usullari bo‘yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

“Baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishining etiopatogenezi va oldini olish usullari” bo‘yicha tavsiyanoma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2024-yil 15-apreldagi 02/23-237-son ma’lumotnomasi). Ushbu tavsiyalarni baliqchilik xo‘jaliklarida joriy etish evaziga baliqlarda oqsillar almashinuvi

buzilishlarini keltirib chiqaradigan omillarni aniqlash, barvaqt diagnostika qilish va oldini olishga erishilgan;

baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlarini aniqlashning ETS (energiya tanqisligi sindiromi) biosinov test tekshiruviga asoslangan usuli ishlab chiqilgan va Samarqand, Toshkent viloyatlarining baliqchilik xo'jaliklariga joriy etilgan. (O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 15-apreldagi 02/23-237-son ma'lumotnomasi). Ushbu tekshirish usulini baliqlarda o'tkazish orqali kasallikni subklinik davrida aniqlash imkoniyati yaratilgan;

baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlarini oldini olishda havza suvini $2,5\text{kg/m}^3$ hisobida o'g'itlash orqali tabiiy ozuqa bazasini rivojlantirish hamda 0,1% miqdorda innoprovot probiotigi, 3% miqdorda baliq uni aralashtirib tayyorlangan ekstruderlangan omuxta yemdan bir kunda 3 mahal bir kunlik ozuqa miqdori baliq tana vaznini 2,5% miqdorida oziqlantirish usuli ishlab chiqilib veterinariya amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 15-apreldagi 02/23-237-son ma'lumotnomasi). Natijada baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlarining oldini olishga va baliqlar tana vaznini nazorat guruhiga nisbatan 0,3-0,4 kg ga yuqori bo'lishiga erishilgan. Sarflangan bir so'mga xarajatlar qoplami 8,78 so'mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, ularning 6 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda, 2 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlarida nashr etilgan. 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida tadqiqotlar mavzusining dolzarbligi va zaruriyati, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning obyekti va predmetlari, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyot ma'lumotlarining tahlili**» deb nomlangan birinchi bob uch qismga bo'lingan bo'lib, uning birinchi «Oqsillar almashinuvining baliqlar organizmidagi ahamiyati» deb nomlangan qismida oqsillarni baliq organizmidagi o'rni, vazifalari baliqlarda oqsillar almashinuvi jarayonining kechishi

hamda baliqlarning oqsil moddalarga bo'lgan talablari haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan. «Baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishining etiologiyasi, simptomlari va potogenezi» deb nomlangan ikkinchi qismida baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlarini keltirib chiqaradigan omillar, ushbu patologiyalar natijasida kelib chiqadigan belgilar va oqsillar almashinuvi buzilishining baliq organizimida kechish xususiyatlari keltirilgan. «Baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishining diagnostikasi, oldini olish chora tadbirlari» deb nomlangan uchinchi qismida baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlarini davolash va oldini olish usullari to'g'risidagi Respublikamiz va xorijiy olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Xususiy tadqiqotlar**» deb nomlangan ikkinchi bobi ikki qismga bo'lingan bo'lib uning birinchi «Tadqiqot joyi, obyekti va usullari» deb nomlangan qismida tadqiqotlar joyi, obyekti hamda usullari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Ilmiy tadqiqotlar 2021-2023 yillar davomida Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanining "Aminjon Faruxbek" va Narpay tumanining "Narpay Quvonchbek" Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumanining "Autsayder Fish" MCHJga qarashli baliqchilik xo'jaliklarida bajarilgan.

Klinik tekshirishlar uchun baliqchilik xo'jaliklarida 50 boshdan iborat karp zotli, bir yillik (segoletkalar) etalon guruhi «o'xshash juftliklar» tamoyili asosida ajratib olinib, ularda 70 kunda bir marta klinik-laborator tekshirishlar o'tkazildi.

Laboratoriya tekshirishlari Baliqchilik ilmiy tadqiqot institutining "Ixtiopatologiya" laboratoriyasi, Respublika "Hayvonlar kasalliklari tashhisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi" davlat markazining "Kimyo toksikologiya" laboratoriyasida va Toshkent shahridagi xususiy "Gematologiya" tibbiyot markazida olib borildi.

Baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishining sabablarini aniqlash maqsadida oziqa ratsionining tarkibi va to'yimliliigi (Perten DA7250 apparati) yordamida tahlil qilindi. Baliqchilik suv havzalaridan suv namunalari olinib havza suvini tarkibida erigan kislorod miqdori "Oxygen Meter" apparatida, suvning pH ko'rsatkichi "pH meter" aparatida aniqlandi.


Baliqlarni organoleptik, gematologik va patologoanatomik tekshirishlar har 70 kunda bir marta o'tkazildi.

Baliqlardan olingan qon namunalarida gemoglobin (Apel HG-220) gemanalizator apparati yordamida, eritrositlar va lekositlar soni Goryayev sanoq to'rida (XSP-62 markali mikroskopda) mikroskopik usulda, umumiy oqsil Refraktometrik usuli, (RHC - 200 portativ refraktometrida) yordamida aniqlandi.

Baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishining subklinik davrida aniqlash uchun energiya tanqisligi sindromini (ETS) aniqlashga asoslangan biosinov test usullidan foydalanildi.

Ushbu bobning «Baliqchilik xo'jaliklarida modda almashinuvi buzilishi kasalliklarining monitoring natijalari» deb nomlangan ikkinchi qismida tekshiruvlar olib borilgan baliqchilik xo'jaliklarida moddalar almashinuvi buzilishlarining uchrash darajasi haqida natijalar keltirilgan bo'lib, "Aminjon Faruxbek" baliqchilik xo'jaligida tekshirilgan 50 bosh baliqdan 39 boshida moddalar almashinuvi buzilishi patologiyalari aniqlandi: shundan 15 boshida (38,46%) oqsillar almashinuvi buzilishi,

6 boshida (15,38%) vitaminlar almashinuvi buzilishi, 5 bosh (12,82 %) baliqlarda uglevodlar almashinuvi buzilishi, 7 boshida (17,94%) mineral moddalar almashinuvi buzilishi, 6 bosh (15,38%) baliqlarda esa yog‘lar almashinuvining buzilishi kasalliklariga xos klinik belgilar mavjudligi aniqlandi.



1-rasm. Baliqchilik xo‘jaliklarida o‘stirilayotgan baliqlar orasida moddalar almashinuvi buzilishi kasalliklarining uchrash darajasi. (n=50)

“Outsayder Fish” xo‘jaligida tekshirilgan 50 bosh baliqdan 25 boshida moddalar almashinuvi buzilishlari aniqlandi: shulardan 9 bosh (36%) baliqlar orasida oqsillar almashinuvi buzilishi, 6 bosh (24%) baliqlarda gipovitaminozlar mavjudligi aniqlandi. 3 bosh (12%) baliqlarda mineral moddalar almashinuvi buzilishi kasalliklari qayd etilgan bo‘lsa, 4 bosh (16%) baliqlarda yog‘lar almashinuvi buzilishi, 3 bosh (12%) baliqlarda esa uglevodlar almashinuvi buzilishi kasalliklari mavjudligi qayd etildi (1-rasm).

Dissertatsiyaning uchinchi «**Baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlarining etiopatogenezi**» deb nomlangan bobida Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumanidagi “Outsayder Fish”, Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumanidagi “Aminjon Faruxbek”, Narpay tumanidagi “Narpay Quvonchbek” baliqchilik xo‘jaliklarida 1 yillik karp zotli baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlarining etiologiyasi va simptomlari, patologoanatomik o‘zgarishlari hamda ularni saqlash va oziqlantirish sharoitlarining tahlili, gematologik ko‘rsatkichlarini o‘rganish maqsadida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumanidagi “Outsayder Fish” baliqchilik fermer xo‘jaligiga qarashli baliqlar ratsionining tahliliga ko‘ra, baliqlar ratsioni (4,5mm) – tarkibida bug‘doy yormasi 10 %, makka yormasi 20 %, bug‘doy kepagi 20 %, mosh yormasi 20 % va arpa yormasi 30 % ni tashkil etdi.

Baliqlarni ozuqa ratsioni tahliliga ko‘ra ratsiondagi protein miqdori 26%, yog‘-5%, uglevod-28 %, kalsiy-2,5%, fosfor -3% ni tashkil etdi.

Baliqlar organizmi uchun asosiy energiya manbai hisoblangan protein miqdori me'yor ko'rsatkichlaridan 4-6% ga (me'yor-30-32%), uglevodlar -15,2% ga (me'yor-43,2%), yog' - 2% ga (me'yor-7%) kam ekanligi aniqlandi.

Xo'jaliklardagi suv havzalaridan aprel-iyul oylarida har oyda ikki marotaba olingan suv namunalarining muhiti (pH) ni hamda suv havzalarida kislorod miqdori tekshirilganda pH kuchsiz kislotalik muhitda ekanliga va me'yor ko'rsatkichidan 0,3-0,7 ga farq qilganligi hamda havza suvida erigan kislorod konsentratsiyasining 5mg/l dan 6,1mg/l gacha o'zgarib turganligi tekshiruvlarda kuzatilib borildi.

1- jadval

“Autsayder Fish” baliqchilik xo'jaligida aprel-iyul oylarida o'tkazilgan gidrokimyoviy tekshirish natijalari

Ko'rsatkich-lar	Tekshirish vaqti							
	Aprel		May		Iyun		Iyul	
	Oy boshi	Oy oxiri	Oy boshi	Oy oxiri	Oy boshi	Oy oxiri	Oy boshi	Oy oxiri
pH	6,4 ±0,2	6,6 ±0,1	6,8 ±0,4	6,7 ±0,3	6,9 ±0,2	6,6 ±0,1	6,8 ±0,3	6,7 ±0,1
Kislorod miqdori, mg/l	5,0 ±0,3	6,0 ±0,2	5,8 ±0,4	5,5 ±0,1	5,3 ±0,5	5,7 ±0,3	5,9 ±0,2	6,1 ±0,1

Ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan uchchala xo'jalikda ham oziqlantirish rejimining buzilishi, suv muhiti va tarkibidagi kislorod miqdorining o'zgarishi, baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishi kasalliklarining rivojlanishiga sabab bo'lgan.

Dissertatsiyaning «Baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlarining klinik belgilari va patologoanatomik o'zgarishlari» deb nomlangan bo'limida baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlari paytidagi klinik va patologoanatomik o'zgarishlarni aniqlash natijalari bayon etilgan.

“Autsayder Fish” baliqchilik xo'jaligidagi baliqlardan 50 boshdan etalon guruhlar tanlab olinib, ularda umumiy qabul qilingan usullarda har 70 kunda bir marta baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishiga xos bo'lgan klinik hamda patologoanatomik belgilarini aniqlash uchun tekshiruvlar olib borildi. Baliqlarda klinik tekshiruvlar olib borilganda 18% da skilet muskullarining bo'shashganligi, 10% baliqlarda tana rangining qorayganligi, 24% baliqlarda tana muskullarining atrofiyaga uchrab oqimtir kul rangda ekanligi, 58% baliqlarda esa tashqi tasirotlarga javob reaksiyasining pasayganligi, tangachalarni to'kilish darajasini ortishi, tana vazni 350-410 g ekanligi aniqlandi (2-rasm).



2-rasm. Oqsillar almashinuvi buzilishi natijasida baliq tanasidagi ayrim tangachalarning to'kilishi

Patologoanatomik tekshiruvlarda 26% baliqlarda oqsilli jigar distrofiyasini rivojlanganligi (loyqasimon rangda ekanligi, hajmining kattalashganligi), 32% baliqlarda tanasi rangining qorayganligi, 72% baliqlarda koxeksiya, 13% baliqlarda ichaklar devorining qalinlashishi, 8% baliqlarda suzgich qanotlarida sinuvchanlik darajasining ortishi hamda oqimtir qizg'ish rangda bo'lishi (me'yorda to'q qizg'ish), buyraklarning qisman kattalashganligi kabi xarakterli belgilarning kuzatilishini ko'rsatdi.

Dissertatsiyaning «Baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishida qonning ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar» deb nomlangan qismida baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlari vaqtida qonda yuzaga keladigan morfofiokimyoviy o'zgarishlarni o'rganish natijalari keltirilgan bo'lib, gematologik tekshiruvlar har bir xo'jalikda 30 kunda bir marta jami uch marotaba olib borildi.

Baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlari vaqtida qondagi eritrositlar soni tekshirishlarning oxiriga kelib o'rtacha «Autsayder Fish» baliqchilik xo'jaligida $0,9 \pm 0,2$ mln/mkl, «Aminjon Faruxbek» baliqchilik xo'jaligida $0,8 \pm 0,2$ mln/mkl, «Narpay Quvonchbek» baliqchilik xo'jaligida o'rtacha $0,8 \pm 0,2$ mln/mkl, leykositlar soni «Autsayder Fish» baliqchilik xo'jaligida o'rtacha $30,4 \pm 0,8$ ming/mkl, «Aminjon Faruxbek» baliqchilik xo'jaligida $30,1 \pm 0,8$ ming/mkl, «Narpay Quvonchbek» baliqchilik xo'jaligida o'rtacha $30,1 \pm 0,8$ ming/mkl, gemoglobin miqdori shunga mos ravishda $66,01 \pm 3,05$ g/l, $64,13 \pm 3,07$ g/l, $65,13 \pm 3,04$ g/l (gipogemoglobiniemiya), umumiy oqsil o'rtacha $20,41 \pm 1,21$ g/l, $20,22 \pm 1,01$ g/l, $20,01 \pm 1,00$ g/l (gipoproteinemiya), umumiy kalsiy $1,5 \pm 0,10$ mmol/l, $1,4 \pm 0,11$ mmol/l, $1,4 \pm 0,11$ mmol/l (gipokalsiyemiya), anorganik fosfor o'rtacha $0,95 \pm 0,05$ mmol/l, $0,94 \pm 0,05$ mmol/l, $0,95 \pm 0,05$ mmol/l (gipofosforemiya), retinolning miqdori $36,01 \pm 0,5$ mg/l, $37,3 \pm 0,9$ mg/l, $35,5 \pm 1,0$ mg/l ($P < 0,05$) ni tashkil etganligi aniqlandi.

Baliqlarning oqsillar almashinuvi buzilishlarida qonning ayrim morfobiokimyoviy ko'rsatkichlarini baliqlar tana vaznining ortib borishi bilan qondagi gemogloblin miqdorini o'rtacha 13,94% ga eritrotsitlar va leykositlar sonini shunga mos ravishda 35,64% va 23,34% ga kamayib borishi xarakterli bo'ldi. Baliqlar organizmida oqsillar almashinuvi gipoproteinemiya bilan xarakterlanib qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori tekshirishlar davomida o'rtacha 50,02% gacha kamayganligi aniqlandi. Qon zardobidagi umumiy kalsiy va anorganik fosfor, retinol miqdorlari ham baliqlarda tana vaznining oshib borishi bilan dinamik ravishda kamayib borishi kuzatildi. Ushbu gematologik o'zgarishlar baliqlar organizmida oqsillar almashinuvining buzilishidan dalolat beradi.


Dissertatsiyaning to'rtinchi «**Baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlarini guruhli profilaktika qilish tajribalari**» deb atalgan bobida baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlarini oldini olish bo'yicha tajribalar natijalari keltirilgan.

Baliqlarda uchraydigan oqsillar almashinuvi buzilishlarini oldini olishda samarali vositalarni tanlash, ularni baliqlar organizmiga ta'sirini o'rganish maqsadida uch bosqichda ilmiy tajribalar o'tkazildi. Birinchi bosqich tajribalar Samarqand viloyati Narpay tumanidagi "Narpay Quvonchbek" baliqchilik fermer xo'jaligida ilmiy tadqiqot ishlari o'tkazildi. Xo'jalikda o'stirilayotgan karp zotiga mansub baliq segoletkalari (o'xshash juftliklar) tamoyili asosida 500 boshdan to'rt guruhga ajratildi.

Birinchi tajriba guruhiga granulali omuxta yem (2,5% miqdorda "ProBioKorm" universal probiotigi bilan boyitilgan), ikkinchi tajriba guruhi granulali omuxta yem (3 % miqdorda baliq uni bilan boyitilgan), uchunchi tajriba guruh granulali omuxta yem (Innoprovet probiotigi 0,1% miqdorda aralashtirilgan) nazorat guruhi xo'jalik ratsioni asosida tayyorlangan granulali omuxta yem bilan oziqlantirilib borildi. Tajriba davomida havza suvini boyitish maqsadida har 15 kunda o'g'itlash tadbirlari (so'ndirilgan ohak, amafos suvga eritilgan holda) olib borildi.

Tajribadagi baliqlar har 30 kunda 50 boshdan ovlab klinik, gematologik ko'rsatkichlari tahlil qilib borildi. 90 kun davomida tajribalar o'tkazish bilan baliqlarning o'sish ko'rsatkichlari aniqlab borildi. Bunda to'rtala guruhda ham o'sish bor ammo 3 % miqdorda Baliq uni qo'shilgan va 0,1 % miqdorda Innoprovit probiotigi aralashtirilgan granulali omuxta yem berilgan 2-va 3- tajriba guruhlarida boshqa guruhlarga nisbatan o'sish ko'rsatkichlari yuqori bo'lganligi aniqlandi. Tajribalarni 90-kuniga borganda ikkinchi tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan o'rtacha tana vaznining 242 g, uchunchi tajriba guruhida esa o'rtacha 264 grammga yuqori ekanligi aniqlandi (3-rasm).

Birinchi bosqich tajriba natijalaridan shunday xulosa qilish mumkinki, baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishlarini profilaktika qilishda ularning ozuqasiga baliq uni (3% miqdorda) va Innoprovit probiotigini (0,1% miqdorda) qo'shib granulali omuxta yemning berilishi ularda oqsillar almashinuvini rag'batlantirib, o'sish va rivojlanishini nazoratga nisbatan 34,48 % ga, qondagi gemogloblin miqdori o'rtacha 9,35 % ga, qon zardobidagi umumiy oqsil 71,7 % ga, umumiy kalsiy 5,26% ga, anorganik fosfor 3,03 % ga, retinolning 8,38% ga yuqori bo'lishi aniqlandi.



3-rasm. “Narpay Quvonchbek” baliqchilik fermer xo‘jaligida tajribadagi baliqlarning tana vaznini o‘zgarishi (kg). (n=50)

Ikkinchi bosqich tajribalarimiz baliqlarda oqsillar almashinuvi buzilishini oldini olish uchun samarali profilaktik majmuani ishlab chiqish maqsadida “Aminjon Faruxbek” baliqchilik xo‘jaligida o‘tkazildi.

Tajribalar uchun 3 oylik karp zotiga mansub segoletkalar tanlab olinib ulardan har birida 500 bosh baliqlardan iborat 4 ta tajriba guruhi shakllantirildi. Birinchi tajriba guruhiga “ProBioKorm” universal probiotigini 2,5% miqdorda qo‘shib ekstruderli omuxta yem tayyorlab bir kunda uch marotabadan berib borildi.

Ikkinchi tajriba guruhiga “Baliq unini” 3% miqdorda ekstruderli omuxta yemga aralashtirilgan holda bir kunda uch mahal berildi. 3- tajriba guruhidagi baliqlarga esa ekstruderli omuxta yem tarkibiga “Innoprovet” probiotigidan 0,1% miqdorda aralashtirib bir kunda uch mahaldan oziqlantirish jarayoni olib borildi. 4-guruh nazorat guruhidagi baliqlarga xo‘jalik ratsioni asosida kuniga uch mahaldan oziqlantirilib borildi.

Tayyorlangan ekstruderli yem tarkibi quyidagicha: (100 kilogramda) 20% - makkajo‘xori yormasi, 10 % bug‘doy kepagi, 28 % bug‘doy yormasi, 12 % arpa yormasi va 25 %-mosh, 2% beda unidan iborat.

Tajribalar davomida havza suvini tarkib jihatidan boyitish maqsadida barcha tajriba va nazorat guruhlarida har 15 kunda bir marta o‘g‘itlash ishlari olib borildi.

Tajribalar davomida baliqlarning o‘shish va rivojlanishi, ozuqa qabul qilish darajasi, klinik, gematologik ko‘rsatkichlari va patologoanatomik o‘zgarishlar har 30 kunda bir marta tekshirilib, tahlil qilinib borildi. Tajribalar davomiyligi 90 kunni tashkil etdi.

Tajribaning oxiriga kelib nazorat guruhida namuna sifatida ovlangan 50 bosh baliqlarning o‘rtacha tana vazni 26,2 kg ni tashkil qilib, 1 bosh baliqning o‘rtacha tana vazni 524 g dan to‘g‘ri kelishi aniqlandi.

1-tajriba guruhidagi baliqlarning o‘rtacha tana vazni 35 kg ni tashkil qilib, bir bosh baliqning o‘rtacha tana vazni 700g dan to‘g‘ri keldi. 2-tajriba guruhidagi baliqlarning tana vazni o‘rtacha 37 kg ni tashkil etib, bir bosh baliqning o‘rtacha tana vazni 740 g dan to‘g‘ri kelishi aniqlandi. 3-tajriba guruhidagi baliqlarning o‘rtacha tana vazni 40 kg tashkil etib, bir bosh baliqning o‘rtacha tana vazni 800 g dan to‘g‘ri keldi.

1-tajriba guruhidagi baliqlar qonidagi gemoglobin miqdori tajribalarni boshida o‘rtacha $67,4 \pm 3,25$ g/l ni, tajribalarning 30-kunida bu ko‘rsatkich $69,6 \pm 3,91$ g/l ni, tashkil etgan bo‘lsa tajribalarning oxiriga kelib dastlabki ko‘rsatkichlarga nisbatan 5,9 g/l ga ($P < 0,05$) oshganligi qayd etildi. Ikkinchi tajriba guruhida gemoglobin miqdori shunga mos ravishda, o‘rtacha $67,7 \pm 3,28$ g/l, $69,9 \pm 3,79$ g/l ni tashkil etib, tajribalarning oxiriga kelib dastlabki ko‘rsatkichlarga nisbatan 5,98 g/l ga ($P < 0,05$) ortganligi aniqlandi. Uchunchi tajriba guruhidagi baliqlar qonidagi gemoglobin miqdori tajribalarni boshida o‘rtacha $67,91 \pm 3,18$ g/l ni, tajribalarning 30-kunida bu ko‘rsatkich $71,8 \pm 4,01$ g/l ni, tashkil etgan bo‘lsa tajribalarning oxiriga kelib dastlabki ko‘rsatkichlarga nisbatan 6,76 g/l ga ($P < 0,05$) oshganligi qayd etildi.

Nazorat guruhida gemogloblin miqdori shunga mos ravishda o‘rtacha $66,27 \pm 3,43$ g/l, $66,5 \pm 3,64$ g/l ni tashkil etib, 0,17 g/l ga ($P < 0,05$) kamayganligi aniqlandi.

1-tajriba guruhidagi baliqlar qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori tajribalarning boshida o‘rtacha $21,2 \pm 1,24$ g/l ni, tajribalarning 30-kunida bu ko‘rsatkich $24,7 \pm 1,75$ g/l ($P < 0,05$) ni, tashkil etgan bo‘lsa tajribalarning oxiriga kelib dastlabki ko‘rsatkichlarga nisbatan 16,39 g/l ga oshganligi qayd etildi.

2 –jadval.

Baliqlar qonining biokimyoviy ko‘rsatkichlari (n=50) $M \pm m$

Guruhlar	Gemoglobin, g/l				Umumiy oqsil, g/l			
	A	B	C	D	A	B	C	D
Nazorat	$66,27 \pm 3,43$	$66,5 \pm 3,64$	$66,5 \pm 3,73$	$66,19 \pm 3,88$	$21,2 \pm 1,02$	$22,9 \pm 1,41$	$22,4 \pm 1,57$	$21,13 \pm 1,83$
1-tajriba	$67,4 \pm 3,25$	$69,6 \pm 3,91$	$72,8 \pm 4,0$	$73,3 \pm 3,99$	$21,2 \pm 1,24$	$24,7 \pm 1,75$	$26,3 \pm 1,9$	$37,59 \pm 2,2$
2-tajriba	$67,7 \pm 3,28$	$69,9 \pm 3,79$	$72,9 \pm 3,98$	$73,68 \pm 3,98$	$20,93 \pm 1,23$	$27,9 \pm 1,89$	$27,35 \pm 1,98$	$38,94 \pm 2,1$
3-tajriba	$67,91 \pm 3,18$	$71,8 \pm 4,01$	$73,7 \pm 4,71$	$74,67 \pm 4,15$	$20,88 \pm 1,17$	$28,9 \pm 1,68$	$32,9 \pm 2,2$	$39,8 \pm 2,5$

Izoh: A-tajriba boshi, B-tajribaning 30 –kuni, C- tajribaning 60-kuni, D-tajribaning 90-kuni.

